«Humo!» promo-aksiya qoidalari.

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu qoidalar **«Humo!»** promo-aksiyasini o'tkazish tartibi, shartlari, o'tkazilish joyi va muddatini belgilaydi.

1.2. **Aksiya o'tkaziladigan hudud:** «Orient Finans» XATB tizimi doirasida, O'zbekiston Respublikasi hududida.

1.3. **Aksiya o'tkazish muddati:** Aksiya 2026 yil 30 oktabrdan 2026 yil 28 dekabrgacha o'tkaziladi.

2. Aksiya Ishtrokchilari

2.1. Aksiyada 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ishtirok etishlari mumkin, bundan Orient Finans Bank xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari, shuningdek ushbu aksiyani reklama qilgan shaxslar mustasno.

2.2. Aksiyada ishtrok etish – ishtrokchining ushbu qoidalarga to'liq roziligini anglatadi.

2.3. Qoidalarga rioya qilinmagan taqdirda, ishtrokchi Aksiyada ishtrok etish va sovrin olish huquqidan mahrum bo'ladi. Sovrinni olish uchun ishtrokchilar Aksiya davomida ushbu Qoidalarda belgilangan barcha talablarni bajarishlari shart.

3. Aksiyada ishtrok etish shartlari

3.1 Aksiyada ishtirok etish uchun mijoz quyidagi shartlarni bajarishi lozim:
Aksiya shartlariga muvofiq, "Orient Finans" banki tomonidan emissiya qilingan "HUMO" bank kartasi orqali POS yoki E-POS terminal orqali tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirishi lozim.
Aksiya shartlariga muvofiq keladigan har bir tranzaksiya ishtirokchiga tegishli davr uchun sovrinlar o'yinida ishtirok etish imkoniyatlarini quyidagi hisob-kitob asosida taqdim etadi: tranzaksiya summasining har bir to'liq 300 000 (uch yuz ming) so'mi uchun 1 (bir) imkoniyat.
Agar bir jismoniy shaxsda Orient Finans bank tomonidan emissiya qilingan bir nechta "HUMO" bank kartalari mavjud bo'lsa, ushbu kartalarning barchasi bo'yicha olingan imkoniyatlar qo'shib hisoblanadi.
Aksiyaning bir bosqichi doirasida bir jismoniy shaxs faqat 1 (bir) marta g'olib deb topilishi va 1 (bir) dona pul mukofoti olishi mumkin.
Agar mijoz istalgan bosqichda g'olib bo'lgan bo'lsa, u endi aksiyaning keyingi bosqichlarida g'olib deb tan olinishi mumkin emas.
Tranzaksiya — kalendar oy davomida POS yoki E-POS terminal orqali tovarlar va xizmatlar uchun to'lov amalga oshirilishi natijasida Karta egasining hisobvarag'ida aks ettirilgan chiqim operatsiyasidir. Bankomat yoki bank kassalari orqali kartadan naqd pul yechish, P2P (kartadan kartaga) pul o'tkazmalari, konversiya operatsiyalari, shuningdek, E-POS terminal orqali amalga oshirilmagan boshqa operatsiyalar tranzaksiya hisoblanmaydi. Aksiyada ishtirok etuvchi tranzaksiya summasi Bank komissiyasi hisobga olinmagan holda aniqlanadi.

4. Sovrin Jamg'armasi

4.1 Aksiya doirasida har 10 kunda 5 nafar g'olib uchun 3 000 000 so'm miqdorida pul mukofotlari o'yini o'tkaziladi. Jami 6 ta bosqich ko'zda tutilgan bo'lib, ular 2026-yil 30-oktabrdan 2026-yil 28-dekabrgacha davom etadi. G'oliblarning umumiy soni 30 nafar

mijozni tashkil etadi. Yutib olingan pul mablag‘lari mobil ilovadagi elektron hamyonga o‘tkaziladi.

4.2 G’oliblar sovrinni uning qiymatiga teng bo‘lgan biror tovarni sotib olish orqali almashtirishni talab qilishga, shuningdek qo‘shimcha to‘lov yoki qiymat farqini qaytarish sharti bilan sovrinni boshqa yuqori yoki past qiymatdagi sovringa almashtirishga haqli emaslar.

5. Promo-aksiyani o’tkazish tartibi va sovrinlarni o’ynash jarayoni

5.1. 4.1.- ko‘rsatilgan yutuqli o‘yinning ishtirokchilari deb aksiya shartlarini bajargan va quyida ko‘rsatilgan davrda tranzaksiyalarni amalga oshirgan kredit karta egalari hisoblanadi.

1 bosqich 30.10.2026 yildan - 08.11.2026 yilgacha (shu kun ham kiritilgan)
5 nafar g’oliblar 15.11.2026 yilga qadar aniqlanadi.
2 bosqich 09.10.2026 yildan - 18.11.2026 yilgacha (shu kun ham kiritilgan)
5 nafar g’oliblar 25.11.2026 yilga qadar aniqlanadi.
3 bosqich 19.11.2026 yildan - 28.11.2026 yilgacha (shu kun ham kiritilgan)
5 nafar g’oliblar 05.12.2026 yilga qadar aniqlanadi.
4 bosqich 29.11.2026 yildan - 08.12.2026 yilgacha (shu kun ham kiritilgan)
5 nafar g’oliblar 15.12.2026 yilga qadar aniqlanadi.
5 bosqich 09.12.2026 yildan - 18.12.2026 yilgacha (shu kun ham kiritilgan)
5 nafar g’oliblar 25.12.2026 yilga qadar aniqlanadi.
6 bosqich 19.12.2026 yildan - 28.12.2026 yilgacha (shu kun ham kiritilgan)
5 nafar g’oliblar 07.01.2027 yilga qadar aniqlanadi.

5.2. Bank Aksiya ishtrokchilari bilan yozma muzokaralar olib bormaslik yoki boshqa aloqalar o’rnatmaslik huquqini o’zida saqlab qoladi, Aksiya o’tkazishda bahsli holatlar bundan mustasno.

5.3. Sovrinlar g’oliblari maxsus Random.org dasturi yoki shunga o’xshash tasodifiy raqamlar yaratish dasturlari orqali aniqlanadi.

5.4. Aksiyada ishtrok etish – ishtrokchilar o’z ism, sharflari, fotosuratlari va boshqa ma’lumotlarini tashkilotchi tomonidan reklama maqsadlarida hech qanday qo’shimcha to’lovsiz qo’llashga rozilik berishini anglatadi.

5.5. Bank o’z xohishiga ko’ra ushbu Qoidalarga har qanday o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish huquqini saqlab qoladi va bu o’zgarishlar qo’llanilishidan 3 (uch) ish kuni oldin saytida e’lon qiladi. Bank sovg’alar ro’yxati va ularning miqdorini o’zgartirish yoki kengaytirish huquqiga ega. Bank ishtrokchiga Aksiyada ishtrok etish bilan bog’liq yuzaga kelgan zarar, xarajat yoki boshqa yo’qotishlarni qoplamaydi.

5.6. Bank sovg’adan foydalanish davomida g’olibning sog’lig’i (hayoti) ga yoki uchinchi shaxslarning mulki, salomatligi yoki hayotiga etkazilgan zarar uchun javobgarlikni o’z zimmasiga olmaydi.

5.7. Aksiyani o’tkazish jarayonida paydo bo’lishi mumkin bo’lgan barcha nizo va kelishmovchiliklar Bank va ishtrokchi o’rtasida ixtiyoriy muzokara olib boorish yo’li bilan hal etiladi. Agar kelishuvga erishilmasa, nizo sud orqali ko’rib chiqiladi.

5.8. Bank shubhali yoki soxta tranzaksiyalar aniqlangan taqdirda, ishtirokchini sababini tushuntirmasdan aksiyadan chetlashtirish huquqiga ega.

5.9. Aksiya g’olblari www.ofb.uz, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilinadi.

5.10. Tashkilotchi ishtrokchining Aksiya shartlariga rioya qilmasligi oqibatlari uchun javobgar emas.

6. Aksiya ishtrokchilariga aksiya shartlari, aksiyani to’xtatish yoki muddatidan oldin yakunlash to’g’risida xabar berish tartibi

6.1. Aksiya haqida xabarnomalar qisqa metrajli roliklar monitorlar, bankning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali beriladi.

6.2. Batafsil ma’lumot bankning rasmiy www.ofb.uz. sayti orqali elon qilinadi.

6.3. Promo-aksiya haqida qo’shimcha ma’lumotni quyidagi raqam orqali olish mumkin: (+998 71) 200-88-99.

6.4. Agar Aksiya muddatidan oldin to’xtatilsa, muddatlari uzaytirilsa yoki qoidalarga o’zgartirishlar kiritilsa, www.ofb.uz sayti orqali elon qilinadi.